

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRILISHI

*O'rinova Dildora Abduraxmonovna*  
*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan*  
*davlat chet tillari instituti tyutori*

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati mamlakat taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolada ushbu siyosatning amalga oshirilishiga doir asosiy qirralar, yuridik asoslar va amaliy mexanizmlar yoritilgan. Xususan, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni ilm-fan, ta'lim, madaniyat va sportga jalb etish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi natijalari, yosh avlodning salohiyatini yuksaltirishda ta'lim tizimining roli va jamiyatdagi faoliyatiga oid dasturlar keng ko'lamda muhokama qilingan. Maqola O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar va ularga yechim takliflari haqida tahliliy yondashuvni o'z ichiga oladi.

**Аннотация:** В Республике Узбекистан государственная политика в отношении молодежи признана одним из важных направлений развития страны. В данной статье рассматриваются основные аспекты, правовые основы и практические механизмы реализации данной политики. В частности, анализируются меры по защите прав и интересов молодежи, привлечению ее к науке, образованию, культуре и спорту. Также широко обсуждались результаты государственной политики в социальной и экономической сферах, роль системы образования в повышении потенциала молодого поколения, программы, связанные с его деятельностью в обществе. В статье представлен аналитический подход к проблемам, возникающим при реализации государственной политики в отношении молодежи в Узбекистане, и пути их решения.

**Abstract:** In the Republic of Uzbekistan, state youth policy is recognized as one of the important directions of the country's development. This article covers the main aspects, legal foundations and practical mechanisms for the implementation of this policy. In particular, measures taken to protect the rights and interests of young people, to involve them in science, education, culture and sports are analyzed. The results of state policy in the socio-economic spheres, the role of the education system in improving the potential of the younger generation and programs related to their activities in society are also widely discussed. The article includes an analytical approach to the problems that arise in the implementation of state youth policy in Uzbekistan and proposals for solutions to them.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, kafolatlar, qonunchilik, bunyodkorlik, yoshlar, sport, infratuzilma, ilmiy ishlar.

**Ключевые слова:** Образование, гарантии, законодательство, творчество, молодежь, спорт, инфраструктура, научная работа.

**Keywords:** Education, guarantees, legislation, creativity, youth, sports, infrastructure, scientific work.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlarga oid davlat siyosati izchil ravishda amaliy hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Bu siyosatning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, yoshlarga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi qonunida (qonunning yangi tahriri 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan) belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>. Qonunga ko'ra, yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy hamda boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir. Bu qonunning qabul qilinishi o'sib kelayotgan yosh barkamol avlodni tarbiyalash yuzasidan 1991 yilda "Jumhuriyat o'quvchi-yoshlariga va mutaxassislariga chet tillarni keng ko'lamda o'qitish tizimini takomillashtirish va uning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi qaror, 1992 yilda "O'zbekiston yoshlarini chet mamlakatlarga o'qishga yuborish to'g'risida"gi qaror, 1993 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda ta'lim olayotgan yoshlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasining yosh mualliflariga eng yaxshi asarlari va ilmiy ishlari uchun Davlat mukofotini topshirish to'g'risida"gi farmonlari, 1993 yil 23 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'lom avlod uchun" hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro hayriya jamg'armasi tashkil etish to'g'risidagi farmoni, 1993 yilda "O'zbekiston o'quvchi yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi va "Ijodkor yoshlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash to'g'risida"gi qarorlari, 1995 yil "Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlari kasb-hunar ta'limining yo'nalishini o'zgartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 1996 yilda O'zbekiston Respublikasi yoshlarining "Kamolot" jamg'armasini tuzish to'g'risidagi farmon, 1997 yilda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va

<sup>1</sup> "Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида"ги Қонун 2016 йил, 14 сентябрь // Халқ сўзи, 2016 йил 15 сентябрь.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, 1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarning chet elda ta’lim olishlarini qo‘llab-quvvatlash “Umid” jamg‘armasini tuzish to‘g‘risidagi farmon, 1998 yildan boshlab siyosiy partiyalar faoliyatida yoshlar bilan ishlash tizimini (yoshlar qanoti) yaratilishi, 1999 yilda “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotini hamda 2000 yilda “Nihol” mukofotini ta’sis etilishi, 2000 yilni “Sog‘lom avlod” yili deb e’lon qilinishi, 2001 yilda O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining tashkil etilishi, 2002 yil 24 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi va 2004 yil 29 avgustda “O‘zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni, 2003 yil “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzluksiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror, 2004 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagogik va ilmiy kadrlar malakasini oshirish “Iste’dod” jamg‘armasi Boshqaruvining yangi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni, 2007 yil “Yosh oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2007 yilni “Ijtimoiy himoya yili”, 2008 yilni “Yoshlar yili”, 2010 yilni “Barkamol avlod yili”, 2012 yilni “Mustahkam oila yili”, 2013 yilni “Obod turmush yili”, 2014 yilni “Sog‘lom bola yili”, 2016 yilni “Sog‘lom ona va bola yili”, 2017 yilni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e’lon qilinishi va Davlat dasturlarining qabul qilinishi yoshlar siyosatining amal qilish bosqichlarida yoshlar kayfiyatlari, hayotiy maqsadlari, orzu-umidlari, intilishlari va qanday yashashga qiziqishlarini ilmiy o‘rganish, ulardan to‘g‘ri xulosa qilish, yoshlar intilishlarini ijobiy va bunyodkorlik ishlariga yo‘naltirishga erishishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ayniqsa, 2017 yil 20 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror<sup>2</sup>, 2017 yil 5 iyulda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi prezident farmoni<sup>3</sup> va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar yoshlarga oid islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishga hamda jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Darhaqiqat, bugungi globalashuv davrida sog‘lom, yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash va ularning muammolarini bartaraf etish jamoatchilik oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu o‘rinda

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПФ-2909 сонли қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 20 апрель.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида” 2017 йил 5 июлдаги ПФ-5106 сонли фармони // Халқ сўзи, 2017 йил 6 июль.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Biz yoshlar bilan ko'proq gaplashib, ularning qalbiga quloq solib, dardini bilib, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak"<sup>4</sup>. Shuning uchun ham, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va ularning muammolarini bartaraf etish, yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarning tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yoshlar uchun quyidagilar kafolatlanadi:

- bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi;
- bepul umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi olish;
- davlat ta'lim muassasalarida davlat grantlari doirasida bepul oliy ta'lim olish;
- davlat sport-sog'lomlashtirish va madaniy-ma'rifiy muassasalariga borish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- uy-joy qurish, olish va uni rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- ta'lim muassasalarida o'qish uchun imtiyozli kreditlar berish;
- yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni turar joylar bilan ta'minlash;
- o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta'lim muassasasini bitirganidan keyin bandlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;
- mehnat sohasida yoshga doir o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda imtiyozlar berish va ishni ta'lim bilan qo'shib olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini loyihalashtirish va qurish chog'ida yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olish;
- jamoat transportidan foydalanishda imtiyozlar berish. Ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan yosh fuqarolarni ishga joylashtirishga yordam qo'shimcha ish o'rinlari va ixtisoslashtirilgan korxonalarini barpo etish, o'qitish bo'yicha maxsus dasturlarni tashkil etish, shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan yoshlarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda ish joylarining eng kam miqdori zaxirasini yaratish yo'li bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi va rivojlanishi tarixiga nazar tashlansa 1991 yildan 2018 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida yoshlarning ijtimoiy himoya qilish, ta'lim va tarbiya berish, moddiy ahvolini yaxshilashdan tortib, yoshlar iste'dodini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishgacha bo'lgan tadbirlarni amalga oshirishga oid chora tadbirlar davlat siyosati darajasida

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2017 йил 30 июнь куни "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил 6 июль.

belgilab berildi. Natijada yoshlar muammolari bilan bog'liq masalalar atroflicha taxlil qilindi va amalga oshirilishiga doir ma'lum tajribalar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi va rivojlanishini quyidagi uch davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq keladi. Jumladan:

- 1) 1991-2000 yillar;
- 2) 2001-2010 yillar;
- 3) 2011-2017 va undan keyingi yillar.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi va rivojlanishiga oid 1991–2000 yillarga bo'lingan birinchi davrda mustaqil O'zbekistonda yosh avlodga qaratilgan davlat siyosati, respublikada ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uni yanada rivojlantirish imkoniyatlari, ilm-fan va ta'lim sohasidagi yosh kadrlar hamda tashabbuskor, fidoyi, iqtidorli yoshlarga qaratilgan qonunchilik va yoshlar tashkilotlarini shakllantirilishiga alohida e'tibor berildi.

Bu davrda birinchidan, respublika hududida yoshlarga oid davlat siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab berildi;

ikkinchidan, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqildi; uchinchidan, yoshlarga oid davlat siyosati boshqaruv idoralari tuzish va respublikada aniq maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishga e'tibor berildi;

to'rtinchidan, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga mo'ljallangan moliyaviy mablag'larni tasarruf etish va respublika hududida yoshlar birlashmalarining ijtimoiy munosabatlari huquqiy jihatdan tartibga solindi;

beshinchidan, respublikada yoshlar jamoat uyushmalarining tashabbuslarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash va barcha huquq sub'ektlarining O'zbekiston Respublikasi qonunlarida yoshlarga nisbatan belgilab qo'yilgan majburiyatlarga rioya etishlarini nazorat qilish hamda amalga oshirishning boshqa masalalariga e'tibor qaratildi.

Yuqorida belgilangan vazifalar asosida O'zbekistonda ta'lim sohasini bosqichma-bosqich, aniq maqsadga yo'naltirilgan holda isloh qilish bo'yicha uzoqni ko'zlagan dasturlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Umummilliy dasturlar doirasida o'tgan davr mobaynida mamlakatdagi ta'lim muassasalari: maktab, litsey, kollejlarning zamonaviy moddiy-texnik va o'quv bazasini shakllantirish, mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi standartlar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida siyosatning huquqiy bazasi o'rganilgan.

Ilmiy-tadqiqot ishlari: Milliy va xalqaro ekspertlar tomonidan yoshlarga oid siyosatning ta'siri, natijalari va istiqbollari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan.

Amaliy materiallar: Davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan hisobotlar, statistik ma'lumotlar va tadbirlar haqidagi materiallar o'z ichiga olindi.

Metodologiya esa quyidagi yondashuvlar asosida shakllantirilgan: Tizimli tahlil: Yoshlarga oid davlat siyosatini tashkil qiluvchi asosiy komponentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilgan.

Taqqoslash usuli: O'zbekistonning yoshlar siyosatini xalqaro tajriba bilan qiyoslab, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan.

Tahliliy yondashuv: Ma'lumotlar asosida muammolar, imkoniyatlar va istiqbolli yo'nalishlar aniqlangan.

Empirik usul: Sohadagi real holatni baholash maqsadida amaliy natijalar tahlil qilingan.

2001-2010 yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi davr davomida mamlakatda yoshlar kayfiyatlari va ularning islohotlar jarayonlariga nechog'li tortilganligi, yoshlarga oid davlat dasturlarining qabul qilinishi, yoshlarning jamiyatdagi o'z o'rnini belgilashga qaratilgan sa'yi-harakatlar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2001 yildan boshlab mamlakatda mustaqil yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etildi<sup>5</sup>, jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida yoshlarning ishtirokini takomillashtirish yo'nalishlariga alohida e'tiborni qaratildi, 2001-2010 yillar davomida mamlakatdagi yoshlar kayfiyatlarini o'rganish nuqtai-nazaridan ularda quyidagi o'ziga xos ikki turdagi qarama-qarshi vaziyat va xususiyat o'zini yorqin namoyon etdi:

1) Yangilik va modernizatsiya qilish jarayonlariga kamarbastalik, ular mohiyatini chuqur anglash, islohotlar maqsad va mazmunini qo'llash, yangi munosabatlarga intilish, izlanish, o'z ijtimoiy ovozigaga ega bo'lish uchun harakat, o'ziga ishonch, o'z salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflashga tayyorlik, shaxs sifatidagi komillikka intilish va o'z mustaqil fikriga ega bo'lish, o'z taraqqiyotini jamiyat rivoji bilan bog'lash, bunyodkorlik ishlariga tayyorlik va sofko'ngillilik;

2) Yoshlar o'rtasida boqimandalik, befarqlik, boshqaruv tizimlariga ishonchsizlik, barcha narsani men uchun davlat yaratib berishi lozim degan asosga qurilgan kayfiyat, yot g'oyalarga nisbatan subutsizlik, ziddiyatlarga moyillik, o'z ijtimoiy holatidan norozilik, o'z kelajagiga ishochsizlik, konfliktli vaziyat va holatlardan chiqib keta olmaslik kabi illatlarni ayrim yoshlarda shakllanganligi. Shuningdek, ana shunday holatlarni o'zi yaratishi, qonunlarni bilmasligi, bilimsizlik va tushkunlik kayfiyatlarini shakllanganligi.

<sup>5</sup> ЎЗР "Камолот" ЁИХ ЖА. "Камолот" ЁИХнинг 2001–2008 йиллардаги фаолияти юзасидан ҳисоботи. – Б. 37.

Shu bilan birga, bu davrda yoshlar o'rtasida ta'lim, mehnat, madaniyat, qonunlarga bo'ysunish, yangi demokratik tamoyillarni anglash va qabul qilish, ijtimoiy hayot, demokratik jamiyat muvozanatiga nisbatan turlicha munosabat hamda qarashlar mavjud bo'ldi. Mazkur vaziyatning murakkabligi ayniqsa, uning qarama-qarshi tomonlari, yoshlar o'rtasida targ'ibot va tashviqot faoliyatini yanada kuchaytirish, uning yoshlar ongiga ta'sirchanligini oshirish lozimligini ko'rsatdi. Buning natijasida yangi metodologik texnologiyalarning joriy etilishi, yoshlar ichiga kirib borish usullarining kengaytirilishi kabi masalalarga alohida e'tibor berildi. Bu o'rinda davlat va nodavlat tashkilotlarining o'rni ham muhim ahamiyat kasb etdi.

### **NATIJARLAR**

2011-2017 yillarni o'z ichiga olgan uchinchi davr davomida O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarning ijobiy natijasi ko'p jihatdan davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tamomila yangicha pog'onaga ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lib qoldi. Ushbu vazifa amalga oshirilishining asosida esa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yotadi. Ular siyosiy-huquqiy ong darajasining yuksalib borishi esa Konstitutsiya va boshqa qonunlarni hurmat qilish, jamiyat barqarorligi uchun mas'uliyatni doimo his qilib turish kabi jihatlar bilan izohlanadi. Ammo o'tgan yillar davomida sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo'lgan dolzarb masalalar, ayniqsa uyushmagan yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash, tashabbuslarini rag'batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganligidan dalolat bermoqda.

Hozirda O'zbekiston oldida turgan asosiy dolzarb vazifa joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko'p sonli yoshlarning o'z iqtidor va iste'dodini ro'yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning tayinli ish bilan ta'minlash va ularni turli zararli illat, yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda yoshlarni jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan 2017 yil 5 iyulda "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"<sup>6</sup>gi farmonining qabul qilinishi nihoyatda muhim tarihiy ahamiyat kasb etdi. Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида" 2017 йил 5 июлдаги ПФ-5106 сонли фармони // Халқ сўзи, 2017 йил 6 июль.

tomonlarni qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi tashkil etildi. O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlanadigan bo'ldi. O'zbekiston Yoshlar Ittifoqiga 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog'liq bir qator yangi va muhim dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida "Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishini, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"<sup>7</sup> – deb ta'kidladi. Darhaqiqat, dunyo mamlakatlarida bugungi kunda ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod bo'lib, ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev halqaro jamoatchilikka "O'zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini" ishlab chiqishni taklif etdi.

## MUHOKAMA

Bugungi globallashtirish jarayonlarining rivojlanishi natijasida yoshlar tarbiyasiga turli mafkuraviy tahdidlarning ortishi ta'lim va tarbiya ishlarini yanada kuchaytirishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda. Bu o'rinda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi va ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq keladi:

1. Madaniy, ma'rifiy, mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohada barcha ishlarni muvofiqlashtirish;

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 19 сентябрда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи.



2. Nodavlat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;

3. Tizimli ravishda yoshlarni qiziqtirgan masalalar, hayotiy istaklar, yoshlar bandligi va yoshlar bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish kabi muammolarni hal qilish;

4. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli davra suhbatlari, uchrashuvlarni ibratli xonadon, mehnat va urush fahriylari, yozuvchi, shoirlar bilan tashkil etish hamda yoshlar turmush tarzi, ruhiyati, qiziqishlarini davomli o'rganadigan psixologik markazlarni tashkil etish hamda ular ishini maxsus reja, dastur asosida olib borish;

5. Yoshlarning tartib-intizomini to'g'ri yo'lga qo'yishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini davr talablari asosida takomillashtirish;

6. Barcha ta'lim muassasalarida yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, turli ilmiy, badiiy va sport to'garaklari faoliyatini rivojlantirish;

7. Yoshlarda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini mustahkamlash uchun ularni ichkilikbozlik, kashandalik, narkomaniya, ma'naviyatsizlik, ommaviy madaniyat tahdidlaridan saqlash maqsadida mahallalarda, ta'lim muassasalarida doimiy ravishda yoshlar o'rtasida terrorizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik kabi salbiy holatlarning havfini davra suhbatlari va uchrashuvlarda muntazam tushintirib borish;

8. Yoshlar muammolarini o'rganish maqsadida mahalla va ta'lim muassasalarida ijtimoiy tadqiqotlar, sotsiologik so'rovlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilinadigan bo'linsa, O'zbekistonda bugun davlat va jamiyatining taraqqiyotiga o'ziga xos munosib hissa qo'shayotgan yosh barkamol avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda 1991-2018 yillar oralig'ida yoshlarga oid olib borilgan davlat siyosati ularni tarbiyalashda va har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, bugungi globallashuv jarayonlarining rivojlanishi natijasida yoshlar tarbiyasiga turli mafkuraviy tahdidlarning ortishi ta'lim va tarbiya ishlarini yanada kuchaytirishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. Bu o'rinda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi va ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq keladi:

1. Madaniy, ma'rifiy, mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish, yangi bosqichga ko'tarish, bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish;

2. Nodavlat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish;

3. Tizimli ravishda yoshlarni qiziqtirgan masalalar, hayotiy istaklar, yoshlar bandligi va yoshlar bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish kabi muammolarni hal qilish;

4. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda turli davra suhbatlari, uchrashuvlarni ibratli xonadon, mehnat va urush fahriylari, yozuvchi, shoirlar bilan tashkil etish hamda yoshlar turmush tarzi, ruhiyati, qiziqishlarini davomli o'rganadigan psixologik markazlarni tashkil etish hamda ular ishini maxsus reja, dastur asosida olib borish;
5. Yoshlarning tartib-intizomini to'g'ri yo'lga qo'yishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini davr talablari asosida takomillashtirish;
6. Barcha ta'lim muassasalarida yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, turli ilmiy, badiiy va sport to'garaklari faoliyatini rivojlantirish;
7. Yoshlarda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini mustahkamlash uchun ularni ichkilikbozlik, kashandalik, narkomaniya, ma'naviyatsizlik, ommaviy madaniyat tahdidlaridan saqlash maqsadida mahallalarda, ta'lim muassasalarida doimiy ravishda yoshlar o'rtasida terrorizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik kabi salbiy holatlarning havfini davra suhbatlari va uchrashuvlarda muntazam tushintirib borish;
8. Yoshlar muammolarini o'rganish maqsadida mahalla va ta'lim muassasalarida ijtimoiy tadqiqotlar, sotsiologik so'rovlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

### **XULOSA**

O'zbekistonda bugun davlat va jamiyatining taraqqiyotiga o'ziga xos munosib hissa qo'shayotgan yosh barkamol avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda 1991-2018 yillar oralig'ida yoshlarga oid olib borilgan davlat siyosati ularni tarbiyalashda va har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024. Б.-25.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // Халқ сўзи, 2020 йил 29 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2017 йил 30 июнь куни "Камолот" ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойида сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил 6 июль.
4. “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонун 2016 йил, 14 сентбрь // Халқ сўзи, 2016 йил 15 сентябрь.
5. Topildiyev, O. R. Current research journal of..., 2021–masterjournals. com. The process of spiritual education of youth, 78-82.
6. Топилдиев, О. Р. (2011). Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фан. ном. дисс.... Т.: ЎЗМУ.

7. Topildiyev, O. R. (2015). The role of the family, mahallas and educational institutions in the education of youth. *Society: sociology, psychology, pedagogy*, 3, 29-30
8. Топилдиев, О. Р. (2015). Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи. *Общество: социология, психология, педагогика*, (3), 29-30.
9. Shohbozbek, E. (2024). RENEWAL OF THE SOCIAL SPHERE AND STABLE SOCIETY SYSTEM IN THE PROCESS OF REFORMS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(09), 16-20.
10. Ergashbaev Shokhbozbek Oybek ugli. (2023). Positive effects of the reforms implemented in Uzbekistan on the education system. *International Scientific and Current Research Conferences*, 1(01), 108–111.